

## O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINING AMAL QILISHI

**B.Xolmatov***FarDU moliya kafedrası dotsenti***S.Zokirova***FarDU sug'urta yo`nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sug'urta, uning amal qilishi va turlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, O'zbekistonning sug'urta tarixi va respublikamizda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning mohiyati yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sug'urta, majburiy avtosug'urta, ixtiyoriy avtosug'urta, mulkni sug'urtalash, hayot sug'urtasi, sayohat sug'urtasi, ipoteka sug'urtasi, majburiy va ixtiyoriy sug'urta, «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonun.*

Sug'urta — tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yong'in va boshqalar), har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamalarini to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Sug'urta ko'p asrlik tarixga ega. Sug'urta muassasalari dastlab o'rta asrlarda, dengiz orqali olib boriladigan savdodagi xavf-xatarlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Keyinchalik boshqa sohalarga g'am yoyilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida sug'urta fuqarolarning manfaatlarini ishonchli himoya etuvchi vosita bo'lgan. Sug'urta jamg'armasi milliy iqtisodiyot zahira jamg'armasining muhim va o'ziga xos bo'g'ini hisoblanadi, milliy iqtisodiyotni turli tasodiflardan moliyaviy himoya qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta ishi nihoyatda taraqqiy etgan bo'lib, bu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida sug'urta badal (mukofot)lari hajmi o'rtacha 8-12 % ni tashkil etadi.

O'zbekistonda insonning ehtiyojlariga ko'ra sug'urta turlari mavjud. Jumladan:

- majburiy avtosug'urta;
- ixtiyoriy avtosug'urta;
- mulkni sug'urtalash;
- hayot sug'urtasi;
- sayohat sug'urtasi;
- ipoteka sug'urtasi va boshqalar.

Sug'urtalash majburiy va ixtiyoriy shakllarda amalga oshiriladi. Majburiy sug'urtaning o'zi majburiy va majburiy davlat sug'urtasiga bo'linadi. Ularning har ikkalasi ham qonunchilik hujjatlariga muvofiq joriy etiladi. O'zbekistonda umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti, suv, havo, temir yo'l transportlari yo'lovchilari, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi va boshqalarga majburiy sug'urta turlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat chegaralarini qo'riqlash, Davlat bojxona,

Davlat soliq qo‘mitalari xodimlari majburiy davlat sug‘urtasiga olingan va bunday sug‘urta turlari uchun sug‘urta badali (mukofoti) davlat byudjeti hisobidan to‘lanadi.

Ixtiyoriy sug‘urta turlari sug‘urta munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning o‘zaro roziligi va yozma shartnoma asosida amalga oshiriladi, sug‘urta javobgarligi hajmi (sug‘urta narxi), sug‘urta badali (mukofoti) miqdori, sug‘urta hodisasi yuz berganda to‘lanadigan sug‘urta puli (sug‘urta qoplamasi, to‘voni) summasi – shartnoma shartlari sug‘urta qiluvchi bilan sug‘urta qilinuvchi tomonlar o‘rtasida kelishiladi.

Mustaqillikka erishguniga qadar 1918-1991-yillarda O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini sobiq Ittifoq miqyosida yagona bo‘lgan davlat sug‘urta idorasi („Gosstrax“) va uning ittifoqdosh respublikalardagi boshqarmalari amalga oshirgan. 1991-yildan O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilgan chuqur iqtisodiy islohotlar jarayonida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichlarida davlat Sug‘urta organlari qayta tashkil etildi, ularga raqobatdosh bo‘la oladigan turli mulkchilik shakllarida sug‘urta kompaniyalari va agentliklari vujudga keldi. Sug‘urta xizmati bozori, sug‘urta faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy qonunchilik asoslari yaratildi.

1993-yil 6 mayda O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta to‘g‘risida“gi qonuni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25 fevraldagi farmoniga ko‘ra, Moliya vazirligi huzurida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Davlat sug‘urta bosh boshqarmasi “O‘zagrosug‘urta“ sug‘urta kompaniyasi shaklida qayta tashkil etildi, “Kafolat“ sug‘urta kompaniyasi, “Madad“ sug‘urta agentligi, “O‘zbekinvest“ eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi va boshqa kompaniyalar o‘z faoliyatini boshladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida“gi qonunning yangi tahriri e‘lon qilindi. Ushbu Qonun sug‘urta sohasida tajribadan o‘tgan milliy amaliyot va xalqaro tamoyillarga asoslangan bo‘lib, 10 ta bob va 72 ta moddani o‘z ichiga oladi. Xususan, yangi tahrirdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida“gi qonun 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va qabul qilinganligini ta’kidlash lozimdir. Qonunning ishlab chiqilishidan asosiy maqsad – to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakat qoidalarini qonun darajasida belgilash va sug‘urta faoliyati sohasidagi munosabatlarni boshqarishning yagona mexanizmini yaratish hisoblanadi. “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida“gi qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 23-noyabrda imzolangan hamda 2022-yil 25-fevraldan boshlab kuchga kirgan.

Xulosa qilib aytilishimiz mumkinki, sug‘urta faoliyati dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o‘z samarasini bergani kabi O‘zbekistonda ham rivojlanib borayapti. Bu uchun qator tizimli islohotlar qilinmoqda va shart-sharoitlar yaratilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Moliya vazirligi huzuridagi sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi [www.imda.uz](http://www.imda.uz)
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Vikepediya [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

3. Kholmatov, B. A. (2020). Development Of The Saving Factor In The Agriculture Of Uzbekistan. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 2(12), 23-26.

4. Холматов, Б. А., & Ахмадалиев, Д. Х. (2020). Особенности финансирования инвестиционной деятельности в регионах. In *Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари* (pp. 232-237).

5. Холматов, Б. А., & Абдисаматов, Ш. А. (2019). Некоторые аспекты организации маркетинговой деятельности в субъектах малого бизнеса и частного предпринимательства. In *Теория и практика корпоративного менеджмента* (pp. 133-136).

6. Холматов, Б. А. (2019). Ишлаб чиқариш ташкилий-ҳуқуқий асосларини янада такомиллаштиришнинг тежамкорликка таъсири. *Архив научных исследований*.